



**BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY MADANIYATINI
SHAKLLANTIRISH IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Sultonova O‘g‘ilxon Sobirjonovna

Qo‘qon DU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish, ularni kelgusi kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida mualliflik nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan. Ma‘lumki o‘qituvchilarda ma‘naviy –axloqiy, xususan, pedagogik qiyofasini shakllantirish bo‘yicha o‘qituvchi - tarbiyachining olib boradigan ishlari murakkab va ko‘p qirralidir. Kasbiy madaniyat tushunchasi bevosita pedagogik madaniyat tushunchasining ma‘nosini ifodalaydi.

Kalit so‘zlar. Bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy madaniyat, har tomonlama yetuk, barkamol, intellektual va ma‘naviy salohiyat, pedagogik imidj, pedagogik notiqlik, munosabat.

**ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ КАК СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

Султонова Угылхон Собиржоновна

Базовый докторант Кокандского государственного университета

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос формирования профессиональной культуры будущих учителей, их подготовки к будущей профессиональной деятельности с точки зрения автора как социально-педагогическая проблема. Известно, что деятельность педагога-воспитателя по формированию духовно-нравственного, в частности, педагогического облика учителя сложна и многогранна. Понятие «профессиональная культура» непосредственно выражает смысл понятия «педагогическая культура».



Ключевые слова. Будущий учитель, профессиональная культура, всесторонне зрелый, гармоничный, интеллектуально-духовный потенциал, педагогический образ, педагогическое красноречие, отношение.

FORMATION OF PROFESSIONAL CULTURE OF FUTURE TEACHERS AS A SOCIO-PEDAGOGICAL PROBLEM

Sultonova O'g'ilkhon Sobirjonovna

Kokand State University basic doctoral student

Annotation

In this article, the issue of forming the professional culture of future teachers, preparing them for future professional activities is considered from the author's point of view as a socio-pedagogical problem. It is known that the work of a teacher-educator on the formation of the spiritual and moral, in particular, pedagogical image of teachers is complex and multifaceted. The concept of professional culture directly expresses the meaning of the concept of pedagogical culture.

Keywords: Future teacher, professional culture, comprehensively mature, harmonious, intellectual and spiritual potential, pedagogical image, pedagogical eloquence, attitude.

Kirish

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim siyosatining muhim omillaridan biri yosh avlodni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalashdan iborat. Inson shaxsi haqida gap ketganda albatta ko'z o'ngimizda komillikka intilgan ma'naviy jihatdan yetuk jamiyatning taraqqiy etishiga munosib hissa qo'sha oladigan yurt ravnaqining buguni va ertasini o'ylaydigan shaxsni keltiramiz. Shu o'rinda pezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini keltiramiz: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz".



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th September 2025

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'qituvchining kasbiy madaniyati – o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatlar jarayonida zarur bo'lgan umumiy axloqiy qoidalar majmuasi, pedagogning meyoriy-ma'naviy qarashlarga asoslangan odobidir. Ma'lumki o'qituvchilarda ma'naviy – axloqiy, xususan, pedagogik qiyofasini shakllantirish bo'yicha o'qituvchi - tarbiyachining olib boradigan ishlari murakkab va ko'p qirralidir. Kasbiy madaniyat tushunchasi bevosita pedagogik madaniyat tushunchasining ma'nosini ifodalaydi.

Pedagogik madaniyat imkoniyat yaratgan pedagogik tajribalarni egallab olish orqali ko'p qirrali munosabatlar va muammolarni vujudga keltirishga yordam beradi, o'zini anglashni, o'zini takomillashtirishni ta'minlaydi.

Pedagogik madaniyat muammolari bo'yicha F.N.Gonobolin, N.V.Ko'zmin, A.I.Sherbakov, A.A.Slastenin va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Muhokama va natijalar. Bu tadqiqotlarda pedagogik faoliyatning turli xil sifatleri va ko'rsatkichlari o'rganilgan va pedagogik faoliyat orqali o'qituvchining pedagogik madaniyati darajasini, uning mazmuni va mohiyatini anglaydilar.

E.A.Grishin pedagogik madaniyatni ifoda etib, o'qituvchining quyidagi kasbiy ahamiyatga molik sifatlarini ko'rsatadi:

- umumiy bilimdonlik;
- o'z fanini bilish;
- pedagogik bilim va mahoratlarini doimiy rivojlantirib boorish;
- pedagogik kasbini sevish;
- odamiylik, haqiqatgo'ylik va talabchanlik;
- ko'zatuvchanlik, e'tiborlilik va odoblilik.

V.A.Slastelin pedagogik madaniyatning integral ko'rsatkichlari deb quyidagilarni hisoblaydi:

- mutaxassislik sharafi va g'ururini his etish;
- jamiyatga xizmat qilish shakli sifatida pedagogik faoliyatga tayyorlik darajasi.

V.A.Kan-Kapin pedagogik faoliyat madaniyati tizimiga quyidagilarni kiritadi: Ijodiy individuallik- sezgi, farosat, odob, intuistiya. V.A.Kan-Kapin pedagogik faoliyatga ijodiy jarayon sifatida qaraydi. Pedagogik mahoratga u pedagogik



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th September 2025

mahoratlilikni kiritib, uni pedagogik madaniyatning bir qismi deb hisoblaydi. Pedagogik madaniyatning muhim tashkil etuvchilari sifatida V.I.Pisarenko quyidagilarni ko'rsatadi:

- intelegentlilik;
- bilimlar doirasining kengligi;
- kasbi bo'yicha bilimlarining chuqurligi;
- ilmiy va ijtimoiy ma'lumotlar oqimida yo'l topa olish mahorati; - pedagogik faoliyatda bilm va mahoratlardan foydalana bilishi.

Pedagogik madaniyat muamolarini o'rganish. Bu tizimning quyidagi tashkiliy qismlarini ajratib ko'rsatishga imkoniyat beradi.

O'qituvchining shaxsiy kasbiy pedagogik yo'nalganligi. Bu komponent tizimini tashkil etuvchi element hisoblanadi. U pedagogik jarayonning uning qiziqishlari, layoqati, ishonchi, g'oyalari orqali pedagog faoliyatni insonparvarlashtirishga qaratilgan mustahkam sabablar to'plamidan iborat bo'ladi.

Pedagogik jarayoni tashkil etishda o'qituvchining shaxsi kasbiy pedagogik yo'nalganligi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

G'oyalarini (pedagogik vazifalarni keng ko'ra olishi, pedagogik fikrlashi, rivojlanishi, o'zini rivojlantirish bilan shug'ullanishi, pedagogik o'zaro aloqalarda professionalizmga erishish)

Qiziqishlari (fanga qiziqishi, psixologik-pedagogik bilimlarini takomillashtirishi, o'qituvchilarning ta'lim darajasini va umumiy ma'naviy madaniyatlarini oshirish) Qadriyatli yo'nalishlari (yuqori bilmga ega bo'lish, tarbiyalash, o'qituvchi va rivojlantirish jarayonlarida o'quvchilarini faollashtirish)

Bu tadqiqotlarning umumiy xulosalariga asosan, kasbiy pedagogik yo'nalganlikning muhim omili bo'lib, o'qituvchining insonparvarligi, uning o'quvchilarga oliy qadriyat sifatida munosabati, o'quvchining shaxsi, qadr-qimmatini hurmat qilish, mehribonligini do'stona talabchanligini, befarqlik kamsitish va shavqatsizlikka yo'l qo'ymasligi hisoblanadi. Pedagogik faoliyatga iste'dodi asosida sabablari va maqsadlari yotadi. Sabablari pedagogning pedagogik faoliyatiga anglab etgan holda intilishi bilan ifodalanadi.

Maqsadlari - bu o'qituvchining kasbiy faoliyatida natijalarga erishishga intilishlaridir.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th September 2025

O'qituvchilik kasbi qo'yadigan eng muhim talablardan biri bu uning vakillarining ijtimoiy va kasbiy pozitsiyalarining aniqligidir. O'qituvchining pozitsiyasi - bu uning faoliyatining manbai bo'lgan dunyoga, pedagogik haqiqatga va ijtimoiy-madaniy faoliyatga bo'lgan intellektual, fuqarolik, axloqiy va hissiy-baholash munosabatlari tizimi hisoblanadi. O'qituvchining pozitsiyasi uning shaxsiyatini, uning ijtimoiy yo'nalishining tabiatini, fuqarolik xulq-atvori va faoliyati turini ochib beradi. O'qituvchining ijtimoiy-madaniy va axloqiy qarashlarini tartibga soluvchi rol o'ynaydigan qarashlar, e'tiqodlar yo'nalishlari tizimidan kelib chiqadi.

Pedagogik ta'lim jarayonida muhim savollariga – ta'limning mazmuni va maqsadi to'g'risida javob berish, shaxsning ma'naviy va axloqiy rivojlanishi uchun zamin bo'lishi, milliy madaniyatni tiklash, odamlarning ijtimoiy-madaniy xarakterini o'z-o'ziga ishonish yo'nalishida o'zgartirishga yordam beradigan vositaga aylanishi, tashkilotchilik va shaxsiy mas'uliyat, fuqarolar tinchligi, ma'naviyatini tiklash, ijtimoiy himoya va bolalarni himoya qilishning kafolati bo'lish, ochiq, demokratik jamiyatni shakllantirish yo'lini ko'rsatish kerak.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tayyorgarligi mazmuni insonparvarlik madaniyati va umuminsoniy qadriyatlar, pedagogik dunyoning bir qismi sifatida pedagogik g'oyalarni rivojlantirish orqali o'qituvchilarning qadriyat yo'nalishlari va ehtiyojlarini rivojlantirishga qaratilganligi bilan boyitiladi. Shu munosabat bilan biz o'qituvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida motivatsion va qadriyat munosabatlari sohasini ustuvor deb hisoblaymiz. O'qituvchilik faoliyatiga motivatsion va qadriyatli munosabatni shakllantirish talabalarni o'qishda faol bo'lishga undaydigan sharoit va vaziyatlarni yaratishga asoslangan bo'lishi kerak. Bo'lajak o'qituvchilarning motivatsion sohasiga e'tiborni o'z-o'zini tashkil qilish mexanizmlarini kiritish imkonini beradigan yuqori sifatli ijtimoiy-madaniy tayyorgarlikning muhimligini tushunishga o'zgartirish kerak, bunda ijtimoiy va madaniy rivojlanish jarayoni shaxs tomonidan belgilanishi kerak.

Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika fanlarini o'rganish jarayonida biz talabalar bilan birgalikda ijtimoiy-madaniy rivojlanishni belgilovchi component bo'lgan gumanistik pedagogika g'oyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning madaniy-



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th September 2025

axloqiy pozitsiyasi, dunyoqarash jihatlarini aniqlahga harakat qildik. Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish bizning tajribamizda o'qituvchilik kasbiga qadriyat-semantik munosabatni rivojlantirish va ehtiyojlarni qondirish kabi aniq vazifalarni hal qilish orqali amalga oshiriladi. Insonparvarlik ijtimoiy-madaniy qadriyatlari mahalliy va xorijiy tajriba asosida bo'lajak o'qituvchi sifatida o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi yaratish jarayonlarini shakllantirish, o'qituvchilik faoliyatida ijodiy individuallikni o'z-o'zini rivojlantirishga qaratilgan shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Bizning vazifamiz turli ta'lim metodlarida (ishbilarmonlik, rolli o'yinlar, munozaralar, tanlov vaziyatlari, ijodiy dizayn, muammolarni hal qilish) talabalarning birgalikdagi faoliyati va hamkorligini tashkil etish, talabani unga ijtimoiy-madaniy qadriyatlarni rivojlantirishga yordam beradigan muhit yaratishga jalb qilish edi.

Xulosa

Shunday o'qituvchi shaxsining kasbiy pedagogik yo'nalganligi o'zida uning g'oyalarini, qiziqishlarini, qadriyatli yo'nalishlarini birlashtiradi va pedagogning shaxsiy sifatlarini moslashtirishi haqiqiy imkoniyatlarini, uning o'quv tarbiyaviy jarayon talablari kasbiy darajasini aks ettiradi. Demak yoshlar va kasb tanlash kasbiy o'zlikni anglash va kasbiy shakllanishi sharoitida kasbiy qiziqishlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarning yechimini topishi lozim. Aks holda kasbiy madaniyat bosqichlari o'rtasidagi uyg'unlik yo'qoladi va mutaxassis talabga javob bermaydi. Bo'lajak o'qituvchilarda asosan yuksak pedagogik madaniyatning mavjudligi shu bilan o'lchanadiki u tinib-tinchimaydigan shaxs bo'lib doim izlanishda bo'ladi. Dars-mashg'ulotlarini bir xil usulda emas balkim har bir mavzuga mos holda turli xil metod va vositalardan foydalanishi bundan tashqari kiyinish va muloqot madaniyatini ham alohida e'tibor qaratishi zarur.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th September 2025

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston" 2016.
2. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" 2017
3. Sh.Qurbonov. Ta'limning yangi qadriyatlari. "Ma'rifat" 25-sentyabr 1999., 75-76 son.
4. M.Ochilov. O'qituvchi odobi. T., 1997 yil.
5. Safo Ochil. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. T., "O'qituvchi", 1995 yil.
6. A.Munavvarov. Pedagogika. T., "O'qituvchi", 1996 yil.